| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ .....                           | 1020 |
| Ходжаева Наргизахон Анатолиевна                                                                                                                                                                         |      |
| FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT .....                                                                                                                                              | 1028 |
| Aziza Ibroximova                                                                                                                                                                                        |      |
| KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .....                                                                                          | 1035 |
| Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi                                                                                                                                                                    |      |
| MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA) .....                                                                    | 1043 |
| A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva                                                                                                                                                                         |      |
| TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV ..... | 1051 |
| Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                | 1057 |
| Rafikova Kamila Baxtiyorovna                                                                                                                                                                            |      |
| RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI .....                                                                                                                                      | 1063 |
| Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li                                                                                                                                                                     |      |
| OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI .....                                                                                                            | 1070 |
| Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich                                                                                                                                                                     |      |
| AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI .....                                                                                                                              | 1077 |
| Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li                                                                                                                                                                      |      |
| BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH .....                                                                                                                                      | 1083 |
| Karimov Shoxrux Boydulla ugli                                                                                                                                                                           |      |
| DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024) .....                                                                                | 1087 |
| Ismailova Nilufar                                                                                                                                                                                       |      |
| TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....                                                                                                                         | 1094 |
| Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li                                                                                                                                                                           |      |
| ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ .....                                                                                                             | 1099 |
| Аймухаммедова Амина Какажановна                                                                                                                                                                         |      |
| "O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI .....                                                                                                                  | 1105 |
| Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich                                                                                                                                                                     |      |



|                                                                                                                                                                                     |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB<br>CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....                                                                 | 1110 |
| Qodirov Bekzod Xomidjonovich                                                                                                                                                        |      |
| FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK<br>USULLARI ORQALI TAHLILI .....                                                                  | 1115 |
| O'taganova Umida Egamberdi qizi                                                                                                                                                     |      |
| MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH<br>MASALALARI .....                                                                                  | 1123 |
| Rafiyeva Madina Xusinovna                                                                                                                                                           |      |
| YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH .....                                                                                                    | 1128 |
| Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich                                                                                                                     |      |
| OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL<br>CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....                                                                 | 1132 |
| Karimova Dilfuza Xatamjonovna                                                                                                                                                       |      |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING<br>DOLZARB YO'NALISHLARI .....                                                                        | 1138 |
| Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li                                                                                                                  |      |
| IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL<br>YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI .....                                                     | 1142 |
| Alimov Fazliddin Xalimovich                                                                                                                                                         |      |
| ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY<br>MOHIYATI.....                                                                                   | 1147 |
| Pulatova Adolat Djaxangirshyevna                                                                                                                                                    |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH<br>JARAYONLARI .....                                                                                           | 1152 |
| Fayzieva Dilafruz Shuhratovna                                                                                                                                                       |      |
| MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR<br>VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI .....                                                  | 1156 |
| Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li                                                                                                                                               |      |
| KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH<br>YO'LLARI.....                                                                                     | 1161 |
| Bobomirzayev Isroil                                                                                                                                                                 |      |
| ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ<br>РЕАЛИЗАЦИИ.....                                                                                          | 1165 |
| АскарOVA Мавлуда Турабовна                                                                                                                                                          |      |
| XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                                        | 1171 |
| Ibragimov G'anijon G'ayratovich                                                                                                                                                     |      |
| BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI<br>RIVOJLANTIRISH.....                                                                                     | 1176 |
| Muxitdinova Difuza Farxodovna                                                                                                                                                       |      |
| KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO<br>BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING<br>METODOLOGIK TAMOIYILLARI ..... | 1183 |
| Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                                                                                          |      |
| TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI<br>("TURONBANK" ATB MISOLIDA) .....                                                                                       | 1191 |
| Togayev Salim Sobirovich                                                                                                                                                            |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL<br>BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                    | 1196 |
| Obidov Sanjar Omonxo'jayevich                                                                                                                                                       |      |
| O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH<br>IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL .....                                                  | 1202 |
| Qodirjonov Adhamjon                                                                                                                                                                 |      |



УДК 339.5:911.3

# O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL

**Qodirjonov Adhamjon**

Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali

E-mail: [a.qodirjonov@kiut.uz](mailto:a.qodirjonov@kiut.uz)

ORCID: 0009-0003-3022-6879

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning xizmatlar savdosi bo'yicha hamkor mamlakatlar geografiyasini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Tinbergen tomonidan taklif etilgan gravitatsion model ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan boyitilgan holda qo'llanildi. Empirik tahlil natijalariga asoslanib, xizmatlar eksportida to'liq foydalanilmayotgan salohiyat aniqlanib, alohida hududlar va bozorlar faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** eksport, xizmatlar, gravitatsion model, diversifikatsiya, xalqaro savdo.

**Abstract.** The article analyzes the possibilities of improving the geographical structure of Uzbekistan's partner countries in trade in services. The study applies the gravity model proposed by Tinbergen, enriched with a set of socio-economic factors. Based on the results of the empirical analysis, unused export potential was identified, and scientific and practical recommendations were developed to increase the activity of specific regions and markets.

**Key words:** exports, services, gravity model, diversification, international trade.

**Аннотация.** В статье анализируются возможности совершенствования географии стран-партнеров Узбекистана в сфере торговли услугами. В исследовании использована гравитационная модель, предложенная Тинбергеном и дополненная рядом социально-экономических факторов. На основе результатов эмпирического анализа выявлен неиспользованный потенциал экспорта услуг и разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение активности отдельных регионов и рынков.

**Ключевые слова:** экспорт, услуги, гравитационная модель, диверсификация, международная торговля.

## KIRISH

Xalqaro xizmatlar savdosi so'nggi yillarda yuqori sur'atlarda o'sib borayotgani tashqi savdoni rivojlantirishda ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. U so'nggi 10-yillikda 5,3 foizni tashkil etib, tovarlar savdosiga nisbatan qariyb 2 karra yuqori o'sish sur'atini qayd etgan<sup>1</sup>. Ayniqsa, tovarlar savdosida transport xarajatlarining yuqoriligi bilan bog'liq muammolarga duch kelayotgan O'zbekiston uchun xizmatlar eksportini oshirish, uning miqdoriy va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqilishi yuqori ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro savdoning qariyb 28 foizini<sup>2</sup> tashkil etayotgan xizmatlar bozoriga kirib borishda to'g'ri bozorni tanlash, uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda bozor talablariga moslashish xalqaro darajada raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Geografik cheklovlar ta'sirining nisbatan pastligi milliy eksportchilar uchun turli madaniyatlarga ega bo'lgan bozorlarda savdo aloqalarini yo'lga qo'yish imkonini yaratadi. Natijada eksportni kengaytirish strategiyalarini alohida bozorlar kesimida moslashtirilgan tarzda ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Shu jihatdan aniq maqsadli bozorlarni ajratib olish hamda ularga xos choratadbirlarni ishlab chiqish eksportni takomillashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mavjud salohiyatdan foydalanish darajasini baholash maqsadida gravitatsiya modeli orqali hisob-kitoblar amalga oshirilishi mumkin. Mazkur yondashuv natijalari asosida savdo hajmini oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan mamlakatlar guruhini aniqlash hamda ularga nisbatan alohida yondashuv asosida tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati vujudga keladi.

1 <https://unctad.org/news/unlocking-power-services-trade-development>

2 Уша манба.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gravitatsiya modeli Tinbergen<sup>3</sup> tomonidan 20-asr o'rtalarida taklif etilgan bo'lib, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida yalpi ichki mahsulot, hamda teskari ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida mamlakatlar o'rtasidagi masofani olish tavsiya etilgan. Keyinchalik Anderson<sup>4</sup> geografik masofaning iqtisodiy munosabatlarga ta'siri qator boshqa omillar ta'siri ostida turlicha bo'lishi mumkinligini tushuntirgan hamda modelga ushbu omillarni ham kiritgan. Kalicharan<sup>5</sup> o'z ishlarida nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki iqtisodiy-savdo kelishuvlarining ahamiyatini ham ochib bergan.

So'nggi yillarda gravitatsiya modelini aynan xizmatlar savdosi uchun qo'llagan qator olimlarning ishlari bilan ham tanishib chiqish mumkin. Grundelf va Moknes o'z ishida xizmatlar savdosi hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'rtasidagi bog'lanishlarni tadqiq etishda gravitatsiya modelidan foydalangan hamda korrupsiya, savdo kelishuvlari kabi qo'shimcha omillarning mamlakatlar o'rtasidagi investitsiya va savdo aloqalariga ta'siri darajasini tahlil etgan<sup>6</sup>. Kimura va Li esa o'z ishida gravitatsiya modeli xizmatlar savdosini tovarlar savdosiga nisbatan ham yaxshiroq ochib berishini ta'kidlagan<sup>7</sup>. Ular ushbu model yordamida IHTTga a'zo 10 mamlakat misolida tovarlar eksporti xizmatlar importini rag'batlantirishi mumkinligi haqida xulosa qilgan. Eaton va Kortum ishlarida esa xizmatlar savdosining turli modullari bo'yicha gravitatsiya modeli qo'llanilganini ko'rish mumkin<sup>8</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Gravitatsiya modelini qo'llashda kengaytirilgan regressiya tenglamasi quyidagicha shakllantirib olindi:

$$\ln \text{Export} = \beta_0 + \beta_1 \ln \text{GDP\_UZ} + \beta_2 \ln \text{GDP\_Partner} + \beta_3 \ln \text{Distance} + \beta_4 \text{VISA\_in} + \beta_5 \text{VISA\_out} + \beta_6 \text{History} + \beta_7 \text{Culture} + \beta_8 \text{Border} + \varepsilon$$

Ushbu modeldan foydalanish uchun ma'lumotlar to'plash jarayonida:

- O'zbekistonning hamkor mamlakatlarga xizmatlar eksporti hajmi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida (my.gov.uz orqali yuborilgan 2025-yil 7-aprel kungi №186021762-raqamli murojaatga berilgan javob) tayyorlandi;
- mamlakatlar yalpi ichki mahsulotlari hisoblashda va valyuta kurslari bilan bog'liq xatoliklarning oldini olish maqsadida yagona manba — Jahon bankining rasmiy statistik ma'lumotlar bazasidan olindi;
- mamlakatlar poytaxtlari o'rtasidagi masofa <https://www.distance.to/> sayti ma'lumotlari asosida hisoblab chiqildi;
- viza rejimi bo'yicha ma'lumotlar tegishli vazirlik va idoralarning rasmiy xabarlari, tarixiy va madaniy aloqalar darajasi esa mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida shakllantirildi.

Biroq umumiy chegara va viza rejimi kabi nomiqlik ko'rsatkichlar Anderson ishida qo'llanilgan yondashuvga muvofiq ravishda logarifmlash jarayonida 0 yoki 1 qiymatlar bilan qayd etildi. Hamkor mamlakatlarni tanlashda 25-yil, ya'ni 2000–2024-yillar oralig'ida barqaror savdo hajmi kuzatilgan davlatlar ajratib olindi. Model bo'yicha hisob-kitoblar GRETL dasturi yordamida eng kichik kvadratlar usuli asosida amalga oshirildi.

Yalpi ichki mahsulot hajmi, viza rejimining mavjud emasligi, tarixiy-madaniy aloqalar hamda umumiy chegaraning mavjudligi mos ravishda bozorda talab hajmining yuqoriligi, omillar mobilligini ta'minlashi, tomonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning samarali tashkil etilishi hamda tranzaksiyon xarajatlarning pastligi orqali eksport hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Mamlakatlar o'rtasidagi masofa esa nazariy jihatdan eksport hajmiga teskari proporsional omil sifatida baholanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalarga ko'ra, omillarning barchasi kutilgan ta'sir yo'nalishiga ega ekanligi aniqlandi. Faqatgina din va milliylik nuqtai nazaridan olingan umumiy madaniyat omilining teskari ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (1-jadval).

3 Tinbergen, J. (1962). Shaping the World Economy (esp. 262–293). New York, NY: Twentieth Century Fund.

4 Anderson, J. E. (1979). A theoretical foundation for the gravity equation. The economic review, 69, 106–116.

5 Kalirajan, K. (2007). Regional cooperation and bilateral trade flows: an empirical measurement of resistance. The International Trade Journal, 21(2), 85–107.

6 Grünfeld, L. A. and Moxnes, A. (2003). The Intangible Globalization : Explaining the Patterns of International Trade in Services. undefined.

7 Kimura, F. and Lee, H. (2006). The Gravity Equation in International Trade in Services. Review of World Economics, 142(1). <https://doi.org/10.1007/S10290-006-0058-8>

8 Eaton, J. and Kortum, S. (2018). Trade in goods and trade in services. World Trade Evolution. <https://doi.org/10.4324/9781351061544-4>

1-jadval. Gravitatsiya modeli tenglamasi natijalari<sup>9</sup>

| O'zgaruvchilar    | Koeffitsient | R-qiyamat | Izoh                    |
|-------------------|--------------|-----------|-------------------------|
| In GDP Uzbekistan | 0,82         | p < 0,01  | Eksport imkoniyati      |
| In GDP Partner    | 0,69         | p < 0,01  | Bozor talabi            |
| In Distance       | -1,52        | p < 0,01  | Xarajatlar              |
| VISA in           | 0,64         | p < 0,01  | Omilar mobilligi        |
| VISA out          | 0,47         | p < 0,10  | Omilar mobilligi        |
| History           | 1,28         | p < 0,01  | Institutsional aloqalar |
| Culture           | -0,42        | p < 0,05  | Madaniy ta'sir          |
| Border            | 2,57         | p < 0,01  | Hududiy o'tuvchanlik    |

Madaniy omillarning teskari ta'siri turizm sohasining yuqori ulushi bilan izohlanishi mumkin. Chunki turizm yangi madaniyatni kashf etish, o'rganish hamda noodatiy sharoitlarni tajriba qilishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, boshqa madaniyat vakillarini jalb qilish imkoniyati yuqoriroq bo'lishi mantiqan asosli hisoblanadi.

Ushbu olingan natijalar asosida 2024-yil savdo hajmining ehtimoliy qiymatlari hisoblab chiqildi va 2-jadval ma'lumotlari shakllantirildi. Avvalo, qo'shni mamlakatlar ko'rsatkichlari bo'yicha izoh berib o'tish lozim. Model natijalarida umumiy chegara omilining ta'siri haddan tashqari kuchayganini ko'rish mumkin. Biroq, faqatgina Qozog'istonga amalga oshirilayotgan xizmatlar eksporti umumiy hajmining 52 milliard AQSh dollariga yetishi mantiqan to'g'ri emas.

2-jadval. O'zbekiston xizmatlar eksporti hajmi ko'rsatkichlari (ming AQSh dollari)<sup>10</sup>

| Mamlakat              | 2024-yil | Model natijasi | Tafvut (foizda) |
|-----------------------|----------|----------------|-----------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 703057,3 | 849225,0       | 120,8           |
| Qozog'iston           | 176234,3 | 52428246,3     | 29749,2         |
| Turkiya               | 142547,6 | 282243,5       | 198,0           |
| Tojikiston            | 122286,7 | 39295804,3     | 32134,2         |
| Pokiston              | 42138,5  | 312253,8       | 741,0           |
| Eron                  | 41508,1  | 47934,4        | 115,5           |
| Qirg'iziston          | 40958,6  | 12034592,8     | 29382,3         |
| Hindiston             | 40808,9  | 5215362,1      | 12780,0         |
| Germaniya             | 39175,8  | 75091,9        | 191,7           |
| Turkmaniston          | 32465,2  | 6832040,5      | 21044,2         |
| Ozarbayjon            | 10320,0  | 26185,1        | 253,7           |
| Italiya               | 9562,9   | 19885,1        | 207,9           |
| Fransiya              | 7938,6   | 21664,0        | 272,9           |
| Yaponiya              | 6041,9   | 18689,4        | 309,3           |
| Saudiya Arabistoni    | 5246,7   | 21488,0        | 409,5           |
| Ispaniya              | 4331,8   | 4989,8         | 115,2           |
| Isroil                | 3424,8   | 6937,3         | 202,6           |
| Ukraina               | 2227,4   | 11986,7        | 538,1           |
| Shvetsiya             | 1476,8   | 3785,1         | 256,3           |
| Ruminiya              | 1193,9   | 2938,6         | 246,1           |
| Indoneziya            | 919,6    | 929,3          | 101,1           |
| Tailand               | 800,1    | 847,3          | 105,9           |
| Qatar                 | 707,3    | 2234,0         | 315,9           |
| Finlyandiya           | 662,2    | 1702,7         | 257,1           |
| Armaniston            | 494,6    | 2067,7         | 418,1           |
| Gretsiya              | 415,9    | 1091,0         | 262,3           |
| Norvegiya             | 404,1    | 1855,1         | 459,1           |
| Avstraliya            | 377,2    | 468,4          | 124,2           |
| Filippin              | 340,7    | 1440,5         | 422,8           |
| Braziliya             | 129,5    | 419,2          | 323,8           |
| Vetnam                | 129,3    | 853,4          | 659,8           |

9 Muallif tomonidan tuzilgan.

10 Muallif tomonidan GRETl natijalari asosida tuzilgan.



Shu sababli model natijalarini ushbu jihatdan ko'rib chiqib, real bozor sig'imi hamda qo'shni mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini inobatga olgan holda, mazkur bozorlarga xizmatlar eksportini 250–300 marotabaga oshirish imkoniyati mavjud emasligini ta'kidlash lozim. Biroq Yevropa mamlakatlari, xususan, Germaniya, Italiya, Fransiya va Ispaniya kabi davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari raqamlar orqali o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ko'rsatkichlari ham mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, Pokiston, Hindiston, Vetnam va Eron ushbu guruhga kiradi. Tailand va Indoneziya kabi mintaqqa mamlakatlari bilan savdo hajmining model natijalariga nisbatan yaqin ekanligini ham alohida qayd etish mumkin.

MDH mamlakatlari doirasida ham Armaniston va Ukraina bilan xizmatlar eksportini qariyb 5 martagacha oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rish mumkin. Ushbu ko'rsatkich Ozarbayjon va Rossiya Federatsiyasi bilan mavjud imkoniyatlarga nisbatan mos ravishda 2 va 4 karra yuqoridir. Qo'shni mamlakatlar bilan savdoni oshirish bo'yicha ko'rsatkichlar yuqorida qayd etilgan sabablarga ko'ra real holatdan yiroq ekanini inobatga olgan holda, 2024-yilda mavjud imkoniyatlarni to'g'ri yo'naltirish orqali qo'shimcha 700 million AQSh dollari miqdorida xizmatlar eksportini oshirish mumkin bo'lganini faraz qilish mumkin. Bu esa 2024-yil umumiy xizmatlar eksportining qariyb 13 foizini tashkil etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmatlar eksporti hajmini oshirish bilan birga uning geografiyasini ham takomillashtirish eksport tushumlarining barqarorlashuviga, jahon bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarning salbiy ta'siriga nisbatan sezuvchanlikning kamayishiga hamda hamkor mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlardagi qaramlikning oldini olishga xizmat qiladi. Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlari asosida uzoq xorij mamlakatlariga xizmatlar eksportini oshirish imkoniyatlari yuqori ekanini ko'rish mumkin.

Bunday sharoitda jahon tajribasiga tayangan holda eksportga ixtisoslashgan axborot-konsalting markazlari faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki mazkur sohada bugungi kunda dolzarb muammolardan biri — talab va standartlarni to'liq tushunish hamda zarur me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar bozoriga xizmatlar taklif etish ushbu jihatdan kichik korxonalar uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va tranzaksion xarajatlarning oshishi bilan kechadi.

Buning oldini olish maqsadida yuqorida qayd etilgan maslahat va amaliy yordam ko'rsatuvchi institutlar hamda xususiy tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim. Shuningdek, eksportchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan axborot-konsalting xizmatlarini joriy etishga ehtiyoj mavjud. Ushbu tashkilotlar tadbirkorlar uchun bozor talablari va xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqacha aytganda, eksport marketingi uchun autsorsing xizmatlarini tashkil etish hamda faoliyatning dastlabki bosqichida turli risklarni inobatga olgan holda davlat tomonidan moliyaviy ko'mak ajratilishi lozim.

Tovarlar eksportida ham mazkur tizim o'z samarasini berishi mumkin. Ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi korxonalar soni va sifatini takomillashtirish maqsadida hukumat tomonidan alohida dastur amalga oshirilishi, shuningdek, oldingi yillarda sertifikatlash va transport xarajatlari uchun ajratilgan subsidiyalarning ma'lum qismini ushbu sohalarga yo'naltirish ijobiy natija berishi kutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tinbergen, J. (1962). Shaping the World Economy (esp. 262–293). New York, NY: Twentieth Century Fund.
2. Anderson, J. E. (1979). A theoretical foundation for the gravity equation. *The Economic Review*, 69, 106–116.
3. Kalirajan, K. (2007). Regional cooperation and bilateral trade flows: An empirical measurement of resistance. *The International Trade Journal*, 21(2), 85–107.
4. Grünfeld, L. A., & Moxnes, A. (2003). The Intangible Globalization: Explaining the Patterns of International Trade in Services.
5. Kimura, F., & Lee, H. (2006). The gravity equation in international trade in services. *Review of World Economics*, 142(1). <https://doi.org/10.1007/S10290-006-0058-8>
6. Eaton, J., & Kortum, S. (2018). Trade in goods and trade in services. *World Trade Evolution*. <https://doi.org/10.4324/9781351061544-4>
7. Qodirjonov A.M. O'zbekiston Respublikasi eksportining tarkibiy holati tahlili va takomillashtirish imkoniyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 2, mart–aprel, 2021-yil.
8. <https://www.distance.to/>
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy sayti — [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
10. Jahon bankining rasmiy sayti — <https://data.worldbank.org>
11. <https://unctad.org/news/unlocking-power-services-trade-development>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---